

**IMOM G’AZZOLIY FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLARINI
O’RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Nabiyeva Aziza Komil qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika
nazariyasi va tarixi yo’nalishi 1-kurs magistranti*

azizanabiyeva0727@gmail.com

Orcid:0009-0005-0656-5605

Annotatsiya: Ushbu maqolada talim – tarbiyaning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi va buyuk mutafakkir fiqhshunos olim Imom G’azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlari va ilmiy bayoni yoritiladi.

Kalit so’zlar: Imom G’azzoliy , farzand tarbiyasi , G’azzoliyning tarbiya usullari, odob-axloq.

Kirish. Farzand tarbiyasi insoniyat jamiyatining , har bir millatning va davlatning muhim jihatlaridan biri bo’lib, nafaqat farzand tarbiyalayotgan ota -onalar balki ustozlar va jamiyatning har bir a’zosi uchun dolzarb masala hisoblanadi. Shu boisdan O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham mamlakatimizda ta’lim va tarbiya maslalariga alohida e’tibor berib kelmoqda va ta’lim - tarbiyani mamlakat taraqqiyotining asosiy ustuni deb biladi .

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning farzand tarbiyasiga oid qarashlari ta’lim va tarbiyaning ustuvorligi , o’qituvchi va murabbiylarning jamiyatda tutgan o’rni va muhim roli , yoshlarning tarbiyasida oilaning katta ahamiyatga ega ekanligini bilan ajralib turadi. Bu tamoyillar zamonaviy va yangi O’zbekistonning ta’lim tarbiya siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi va yosh avlodni har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi .

Prezidentimiz fikrlariga hamohang tarzda aytishimiz mumkinki, har bir ta’lim va tarbiya orqali shakllanib rivojlanayotgan yosh avlod o’z mamlakatining va millatining tarixini bilishi va ajdodlarining buyuk pedagogik meroslaridan xabardor bo’lishi lozim.

Asosiy qism. Bugungi kunda yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlash ajdodlarimiz o’gitlari, pand-nasihatlaridan foydalanish alohida pedagogik qimmatga ega. Har bir davrda va islom tarixida pedagogika va axloq ilmiy namoyondalari ta’lim va tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati, uning usullari va natijalari haqida ilmiy nazariy izlanishlar olib borishgan va to’plagan qimmatli ma’lumotlarini ilmiy meros sifatida qoldirishgan .

Darhaqiqat , islom tarixi , diniy e’tiqod, islom dinining farzand tarbiyalashdagi ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz , avvalambor , Imom Abu Homid Muhammad G’azzoliyning shaxsi , uning madaniy merosi va bu madaniy merosning hozirgi davrda

,ayniqsa, farzand tarbiyasida ota – onalar uchun dasturi amal bo’lishi haqida alohida ta’kidlab o’tish lozim.

G’azzoliyning ta’limotlari diniy ,axloqiy , pedagogik jihatdan bebaho meros bo’lib bugungi kunda ham o’zining muhim ahamiyatga ega ekanligini yo’qotmagan . Shu bilan bir qatorda , hozirgi kunda G’azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlari pedagogik jihatdan tahlil qilinib o’rganilmoqda .

Imom G’azzoliy asarlarini o’rganish va tahlil qilish, uning ijodi va ta’lim – tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega .Imom G’azzoliy asarlarida shaxs ma’naviyati insonda odob -axloq namunalarini tarkib toptirish , oila , nikoh ,farzand tarbiyasi va halol menat bilan kun ko’rish , atrof muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo’lishga oid o’z qarashlarini bayon qilgan . Uning yozib qoldirgan buyuk nodir namunalaridan “Ihyou ulumid-din “ , “Kimyoysi saodat “ , “Ayyuha-I-valad “ va “ Ey farzand” kabi asarlarida tarbiya jarayonining mazmun va mohiyatini chuqr yoritib bergen.

G’azzoliy bola pok fitratda dunyoga keladi deb bolani oq qog’ozga o’xshatadi va ota -ona , ustoz va murabbiylar unga to’g’ri yo’lni ko’rsatuvchi kishilar va ular bolaga og’zaki nasihat bilan cheklanmasdan , balki o’z xulq atvori bilan ham namuna bo’lishi kerak deb ta’kidlaydi.

Imom G’azzoliy ota – onalarning farzand tarbiyasidagi o’rniga alohida urg’u bergen va farzandga go’zal axloq o’rgatish , uni ilm olishga undash , halol kasbga o’rgatish ,do’st tanlashni nazorat qilish , yomon odatlardan qaytarish ota – onaning bola oldidagi vazifalaridir deydi.Shu bilan birga , farzand tarbiyasida ilm olishga bo’lgan qiziqishni orrtirish , bolaga halollik , sabr , shukur kabi axloqiy sifatlarni singdirish kerakligi ,shuningdek , yomon odatlarga berilib ketmasligi uchun bolani nazorat qilish kerakligi o’z asarlarida yozib qoldiradi.

G’azzoliy farzand tarbiyasida uchta asosiy bosqichni ajratib ko’rsatadi.Bu davrlar bolalik. (0-7yosh) , o’smirlik davri (7-14 yosh), yoshlik davri (14 yoshdan keyin) hisoblanadi. Bolalik bolaning qalbi toza va ta’sirga ochiq davri bo’lganligi uchun ota-onasiga farzandga ezgu fazilatlarni singdirishi lozim.O’smirlik davrida esa bolaga axloqiy normalar diniy qarshlar singdirilishi kerak va ilm olishga bo’lgan qiziqishi oshirish muhim sanaladi. So’nggi uchinchi davrda ota onalar bolani to’g’ri yo’lnatirishi va bolaning mustaqil fikrlash , shuningdek , tajriba orrtirish davridir .Bu yondashuvlar zamonaviy pedagogikada ham qo’llanib , yoshga mos tarbiya usullarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega .

Shuningdek , G’azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarida tarbiyada ortiqcha qattiqqo’llik yoki haddan tashqari erkalatish zararli ekani aytildi. Farzandni yaxshi ishlari uchun rag’batlantirish va noto’g’ri xatti-harkatlaridan qaytarish uchun yumshoqlik bilan nasihat qilish samaraliroq hisoblanadi.

Xulosa. Umuman olganda , Imom G’azzoliy farzand tarbiyasini inson hayotining eng burchlaridan biri deb bilib, uni nafaqat dunyoviy ,balki oxirat uchun tayyorgarlik sifatida ko’radi.

Imom G’azzoliyning ta’lim va tarbiya borasida ilgari surgan bugungi pedagogika uchun katta ahamiyatga ega. Uning qarashlarini zamonaviy ta’lim va tarbiyaga moslashtirish orqali yosh avlodni ilmli , odobli va komil inson qilib tarbiyalash mumkin . Shu sababli ham , Imom G’azoliy farzand tarbiyasiga oid qarshlarni o’rganish pedagogik muammom sifatida juda dolzarb mavzudir va bu yo’nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirilishi lozim.

Islom olami, butun dunyo 900 yildan buyon hazrat G’azzoliy asarlaridan o’rganib kelmoqda, bu asarlar turli tillarga tarjima qilingan. Sharq mamlakatlaridan tashqari Ovro‘pa, hatto Amerikada u zot nomida ilmgoh (institut) lar ochilib, hayoti va ilmiy faoliyatiga bog‘liq tadqiqotlar olib borilmoqda. G’azzoliy kabi zotlarning nufuzli asarlari har bir asr, har bir jamiyat uchun har doim faqat foyda keltiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati :

- 1.Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “ Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz ”. Toshkent “ O’zbekiston ” 2017.
- 2.Imom Abu Homid Muhammad G’azzoliyning Ihyou ulumid-din kitobi “ Movarounnahr ” 2003yil.
3. Imom G’azzoliniyning Ey farzand kitobi Toshkent “Movarounnahr” 2005 yil.
4. Imom Abu Homid Muhammad G’azzoliyning Kimyoyisaodat kitobi Toshkent “Adolat ” 2005 yil .
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Xo’jayorova Nafisa, Nabiyeva Aziza. Xalq pedagogikasida Abu Nasr Forobiyning ta’limiy va tarbiyaviy g’oyalari. Zamonaviy pedagogikada xalq pedagogikasining o’rni. 2022/12/16. Ct 227-228